Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321274

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

madaniyatini rivojlantirish va matematik tushunchalarni texnik qo'llanmalar bilan birlashtirishni ta'kidlaydigan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish uchun birgalikda harakat qilish kerak.

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytganda, matematikaning texnika fanlari bilan integratsiyasi innovatsiyalarni rivojlantirish va global muammolarni hal qilish uchun katta va'da beradi. Ushbu potentsialni amalga oshirish uchun intizomiy siloslarni buzish, fanlararo hamkorlikni rivojlantirish va muammolarni hal qilishda yaxlit yondashuvni targ'ib qilish uchun birgalikda harakatlar zarur. O'qituvchilar, tadqiqotchilar va siyosatchilar intizomlararo almashinuvni rag'batlantiradigan va fanlararo mutafakkirlarning keyingi avlodini rivojlantiradigan o'quv dasturlari, tadqiqot dasturlari va institutsional asoslarni ishlab chiqish uchun birgalikda ishlashlari kerak. Matematika va texnika fanlariga sinergetik yondashuvni qo'llash orqali biz kashfiyot, innovatsiya va ijtimoiy ta'sir uchun yangi imkoniyatlarni ochishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akhadova, K. S. (2022). Problems of developing mathematical competencies of future engineers. Academic Research in Educational Sciences, 3(3), 316–323. https://doi.org/10.24412/2181-1385-2022-3-316-323

2. Abdurasulovich K. J. The advantages of the methodology of preparing students for innovative activity on the basis of visual teaching of special disciplines //Journal of Critical Reviews. – 2020. – T. 7. – №. 14. – C. 1244-1251.

3. Birgit Pepin, Rolf Biehler, Ghislaine Gueudet. (2021)Mathematics in Engineering Education: a Review of the Recent Literature with a View towards Innovative Practices https://doi.org/10.1007/s40753-021-00139-8

4. Graham, R. (2018). The global state-of-the-art in engineering education. Cambridge, MA: MassachusettsInstitute of Technology (MIT).

5. Hamidov J. A. Technology of creation and application of modern didactic means of teaching in the training of future teachers of vocational education: Abstract of the doctoral dissertation (DSc) on pedagogical sciences. – 2017

6. Howard, E., Meehan, M., & Parnell, A. (2018). Live lectures or online videos: Students' resource choices in a first-year university mathematics module. International Journal of Mathematical Education in Science and Technology, 49(4), 530–553.

7. Howson, A. G., Kahane, J.-P., Lauginie, P., & de Turckheim, E. (1988). Mathematics as a service subject.

Jablonka, E., Ashjari, H., & Bergsten, C. (2017). "Much palaver about greater than zero and such stuff"– first year engineering students' recognition of university mathematics. International Journal of Research in Undergraduate Mathematics Education, 3(1), 69–107.

KORXONA TO'LOV QOBILIYATINI TIKLASHGA QARATILGAN STRATEGIYALARNING IQTISODIY TAHLILI

Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li
Namangan muhandislik-texnologiya insituti tayanch doktoranti
ngofurjon@gmail.com

Published: 23.12.2024

Cite this article: Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li (2024). Korxona to'lov qobiliyatini tiklashga qaratilgan strategiyalarning iqtisodiy tahlili. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321274

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Annotatsiya. Raqobat muhitida korxonaning yashovchanligi ko‘p jihatdan uning to‘lovga qobiliyatlilik darajasi bilan belgilanadi. Mazkur maqolada korxonaning to‘lovga qobiliyatini oshirish strategiyalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: raqobat, korxona, inqiroz, strategiya, to‘lov qobiliyati, bankrotlik, aktivlar, moliyaviy hisobot.

Yaqinlashib kelayotgan yoki boshlangan inqiroz sharoitida noto‘g‘ri tanlangan boshqarish mexanizmi jiddiy moliyaviy yo‘qotishlarga va tashkilotning tegishli bozordan chiqib ketishiga olib kelishi mumkin. Bunday sharoitda korxona faoliyatining inqiroz holatlarini oldindan payqash va unga tayyorgarlik ko‘rish imkonini beruvchi bosqichlarini bilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Inqirozning tabiatini va uning sabablarini tushunish inqirozning aynan ushbu xiliga mos keladigan, ular yordamida inqirozdan qisqa vaqtda va eng kam yo‘qotishlar bilan chiqish mumkin bo‘lgan tartibotlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Korxona – bu kirishda kelib tushgan resurslardan foydalanib, chiqishda ishlab chiqarilgan mahsulotni sotgan holda iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi sun’iy ravishda yaratilgan, ochiq tizim hisoblangan xo‘jalik tuzilmasi. «Korxona iqtisodiyoti» fanining evolyutsion rivojlanishida «korxona» atamasi o‘zgarishlarga duch keldi.

Bugungi kunda korxonani ijtimoiy-iqtisodiy umumiylikka va ishlab chiqarish-texnik yagonalikka ega bo‘lgan, foydali tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish va sotishni amalga oshiruvchi alohida ajratilgan mulkiy majmua sifatida tavsiflash mumkin. Bunda qonuniylikka amal qilish, xodimlar hayoti va faoliyatining xavfsizligini ta’minlash yakuniy natijalardan manfaatdorlik va majburiyatlar bo‘yicha javobgarlik nazarda tutiladi. Korxona xo‘jalik yurituvchi sub’ekt sifatida yuridik shaxs maqomiga ega.

Korxona organizm va tashkiliy tizim sifatida, agar uning tuzilishi (ichki tuzilmasi) faoliyat ko‘rsatish va rivojlanish shartlariga mos kelsa, yanada gullab-yashnaydi. Shuning uchun «.. ishlarni tashkil etish va yuritish strategiyasi firmaning muvaffaqiyati uchun texnologiya, xarajatlar darajasi va talab singari muhim ahamiyatga ega. Muvaffaqiyatga erishgan tashkilotlarning yana bir muhim belgisi – bu ularga xos bo‘lgan qarorlar qabul qilish vakolatlarining axborotga ega bo‘lgan shaxslar qo‘liga topshirilishi tendentsiyasi» .

Strategiya deyilganda, keng ma’noda, strategik vazifalarning ustuvor yo‘nalishlarini, resurslarni va strategik maqsadlarga erishish borasidagi tadbirlar ketma-ketligini belgilab beruvchi harakatlar bosh rejasi tushuniladi [99]. «Strategiya» tushunchasi bilan birga «boshqaruv taktikasi» tushunchasi ham qo‘llaniladi. Boshqaruv taktikasi – bu muayyan strategik maqsadlarga erishish uchun qo‘llaniladigan muayyan usullardir. Inqirozga qarshi prognoz qilishdan farqli o‘laroq, inqirozga qarshi strategiya real vaqtda korxona doirasida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarga asoslanadi.

Tashkilot hayotiy davrining har bir bosqichida boshqaruv tuzilmasi va tizimi bizga yaxshi ma’lum bo‘lgan sxemaga mos keladi. Hayotiy davr bosqichlari bir-birini izchil almashtiradi va o‘sish hamda etilish tabiiy jarayonini o‘zida namoyon etadi. Bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tish o‘zgarishlarning amalga oshirilishi bilan bog‘liq. O‘zgarishlarni osonlashtirish va bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tish uchun mazkur zanjirdagi har bir bosqichining o‘ziga xos xususiyatlarini bilish zarur.

Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda korxonaning hayotiy davrini, masalan, korxonaning vaqtga ko‘ra foydasi – zararlari egri chizig‘i ko‘rinishida yoki vaqtga ko‘ra sotuvlari (daromadi) egri chizig‘i ko‘rinishidagi bog‘liqlikni tadqiq etishga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Bu erda farq printsipial hisoblanadi, chunki birinchi holatda hayotiy davr egri chizig‘ini taxminan emas, balki aniq raqamli ma’lumotlar bo‘yicha tuzish va egri chiziqdan shunchaki nazariy model sifatida emas, balki strategik boshqaruvning amaliy vositasi sifatida foydalanish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy menejment inqirozga qarshi boshqarishning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. U tadbirkorlikni moliyaviy ta’minlashning pul oqimlarini boshqarish va maqbul echimlarni topish imkonini beruvchi strategik va taktik qismlarini o‘zida uyg‘unlashtiradi. Biroq, moliyaviy menejmentning inqirozga qarshi boshqarishdagi asosiy roli shu bilan bog‘liqki, korxonaning moliyaviy resurslari asosiy resurslardan biri hisoblanadi. Korxona faoliyatining moliyaviy natijalari kompaniyaning ichki va tashqi muhiti (sheriklar, kredit tashkilotlar, investorlar, raqobatchilar, davlat va ishdagi jamoa) uchun uning ishining muhim ko‘rsatkichlariga aylandi. Korxona hayotiy tsiklining egri chizig‘i quyidagi bosqichlarga ega bo‘ladi: korxonaning tashkil topishi bosqichi – I, shakllanish bosqichi – II, o‘sish bosqichi (o‘sishning tezlashuvi – III va susayishi – IV davrlarini ajratish mumkin), barqarorlik (etuklik) bosqichi – V, pasayish bosqichi – VI va barbod bo‘lish bosqichi – VII.

Quyida korxona hayotiy tsiklning turli bosqichlarida bo‘lganida uning faoliyat ko‘rsatishini korxona moliyasining harakati nuqtai nazaridan batafsilroq ko‘rib chiqamiz, ya’ni moliyaviy vaG‘yoki boshqa inqirozning yuzaga kelishi (yoxud yuzaga kelish ehtimolini) aniqlash maqsadida korxonaning o‘z rivojlanishning turli bosqichlaridagi qudratini tavsiflaymiz.

Korxonaning hayotiy tsiklidagi eng dastlabki bosqich – bu uning tashkil topishi. I bosqich uning barcha resurslarining katta miqdorda sarflanishi bilan tavsiflanadi, bunda ushbu bosqichda korxona faoliyatining natijalari kiritilgan mablag‘larni qoplamaydi, ya’ni korxona o‘z zarariga ishlaydi, qaysidir vaqtda u xo‘jalik faoliyatini yuritmaydi, balki yangi korxonani tashkil etish va ro‘yxatdan o‘tkazish, asosiy vositalar va aylanma mablag‘larni xarid qilish va ishchi kuchini yollash xarajatlariga qo‘l uradi. So‘ngra, mazkur bosqichning o‘zidayoq korxona ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshira boshlaydi, lekin u hali foyda keltirmaydi. Korxonaning tashkil topishi bosqichi bir necha oydan uch-to‘rt yilgacha davom etishi mumkin.

Eng muhimi, hayotiy davrining I bosqichida korxonaga ushbu tsiklning II bosqichiga o‘tish uchun resurslar etarli bo‘lishi kerak. Yangidan tashkil etilgan korxonalarning aksariyati resurslarning mavjud emasligi yoki shunchaki etarlicha investitsiyalar kiritilmasligi tufayli aynan mazkur bosqichda o‘z faoliyatini to‘xtatadi.

Shakllanish bosqichi (II bosqich) zarar ko‘rmay ishlashning boshlanishi, korxonada strategik faoliyatning shakllanishi, raqobat jihatdan ustunlikning yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichda tashqi va ichki muhit omillari katta ahamiyatga ega bo‘lib, korxonaning tarmoqda qolish-qolmasligi ularga bog‘liq. Bu erda faqat korxona rivojlanishi hayotiy davrining II bosqichi zarar ko‘rmay ishlashga o‘tish, dastlabki foydani olish bilan tavsiflanishini ta’kidlaymiz, xolos, foydaning miqdori esa tobora ortib boradi.

Korxona o‘z rivojlanishining keyingi bosqichi – o‘sish bosqichiga o‘tadi. Uni o‘sishning tezlashishi va o‘sishning susayishi bosqichlariga (tegishlicha korxona hayotiy tsiklining III va IV bosqichlariga) bo‘lish mumkin (1.7 -rasm).

Korxona o‘sishining tezlashishi bosqichi (III bosqich) uning faolligining jadal o‘sishi va raqobatchilarning yo‘qligi yoki kamligi bilan tavsiflanadi. Odatda, ushbu bosqichlarda firma rahbariyati korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi, ishlab chiqarish hajmini va, buning oqibatida, sotish hajmini ham ko‘paytiradi.

O‘sishning tezlashishi bosqichida korxona ko‘proq zaxiraga va ko‘proq o‘sish salohiyatiga ega. Shuning uchun korxonaning rivojlanishi ancha tez sur’atlar bilan kechadi va, buning oqibatida, korxona ushbu bosqichda oladigan foydaning hajmi tez sur’atlar bilan o‘sadi. Nisbatan qisqa muddat ichida korxonaning daromadlari keskin oshadi.

Korxona o‘sishining susayishi bosqichi (IV bosqich) korxona daromadlarining o‘sish sur’atlari pasayishi bilan tavsiflanadi. Biroq, baribir, daromadlarning o‘sishi kuzatiladi. Korxonaning imkoniyatlari tugab boradi, korxonaning kengayish va rivojlanish sur’atlari pasayadi, yuqorida ta’kidlanganidek, daromadlarning o‘sishi kuzatilsa-da, foydaning o‘sish sur’atlari pasayadi. Firma o‘z faoliyati va faolligining eng yuqori cho‘qqisiga chiqadi. Korxona o‘z rivojlanishining keyingi bosqichiga o‘tadi.

Barqarorlik (etuklik) bosqichida (V bosqich) korxona muvaffaqiyat cho‘qqisiga, daromadlar olishning eng avjiga chiqishiga erishadi. Firmaning umumiy holati barqarorlashadi, ishlab chiqarishning kengayishi to‘xtaydi, sotish va daromadlar hajmi o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga erishadi. Mazkur bosqichda boshqaruvchining vazifasi – uni imkon qadar uzoq davom etishini ta’minlashdan iborat, chunki barqarorlik bosqichidan keyin pasayish bosqichi boshlanadi, korxonaning o‘sish zaxiralari va ishlab chiqarish salohiyati o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga erishganligi (deyarli to‘liq ishlatib bo‘linganligi) tufayli korxona osongina pasayish bosqichiga o‘tishi mumkin.

Korxonaning hayotiy tsiklidagi keyingi bosqich – pasayish bosqichi (VI bosqich) raqobatchilarning tajavuzkor siyosati va korxona (moddiy, kadrlar, axborot, tashkiliy) resurslarining tobora eskirib borishi tufayli olinadigan foyda hajmi va ishbilarmonlik faolligining keskin pasayishi bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichda korxona faoliyatining deyarli barcha moliyaviy ko‘rsatkichlari yomonlashadi, balans tarkibi buziladi, korxona kasallikka chalinadi va o‘z faoliyatining oxirgi bosqichi – barbod bo‘lish (bankrotlik) bosqichiga o‘tadi, bunda u o‘z faoliyatidan bevosita zararlar ko‘ra boshlaydi.

Endi korxona hayotiy davrining ushbu bosqichini batafsilroq ko‘rib chiqamiz. Barbod bo‘lish bosqichida (VII bosqich), korxona o‘z hayotiy davrida o‘z faoliyatidan bevosita zararlar ko‘ra boshlaydi.

Agar zudlik bilan choralar ko‘rilmasa va korxonaga nisbatan moliyaviy sog‘lomlashtirish tartiboti qo‘llanilmasa, u holda ushbu bosqichda korxonaning nochorligi (bankrotligi) to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atiladi. Odatda, bankrotlik to‘g‘risidagi ish qarzdor korxonaning bankrot deb e’lon qilinishi va tugatilishi bilan nihoyasiga etadi.

Biroq, korxona hayotining nihoyasiga etishi bizga ma’lum modellarda unchalik chuqur ko‘rib chiqilmaydi. Tadqiqotchilar tomonidan tugatish bosqichi inkor etilishining ikkita sababi mavjud: birinchidan, «o‘lib borayotgan» korxonalar bilan ishlashni juda kamchilik xohlashadi; ikkinchidan, arxiv ma’lumotlarini o‘rganishda tadqiqotchilar va boshqaruv bo‘yicha maslahatchilarni qiziqtiruvchi sub’ektiv faktlar mavjud emas. Shuningdek, korxonaning tashkil topishidan boshlab etuklikka erishishigacha bo‘lgan bosqichlarni oldindan aytish mumkin, degan fikr mavjud, shuning uchun tadqiqotlarning aksariyati mazkur davrga bag‘ishlangan. Yuqorida aytilgan sabablar qatoriga yana shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, axborot bazasining cheklanganligi tufayli pasayish va o‘lim (barbod bo‘lish) bosqichlarini tahlil qilish qiyin. Bu hol korxonaning tugatilishi, hujjatlardan foydalanish imkoniyatining va, eng asosiysi, top-menejerlar o‘rtasida so‘rov o‘tkazish imkoniyatining mavjud emasligi bilan bog‘liq.

Korxona hayotiy davrining har qanday bosqichida faoliyatini to‘xtatishi mumkin. Korxonaning o‘limi (barbod bo‘lishi) yoki tugatilishi hayotiy tsiklning har qanday bosqichida: ko‘zlangan maqsadlarga erishganlik munosabati bilan mulkdorlar qaroriga ko‘ra; korxonaning bankrot bo‘lishi natijasida mulkdorlar xohishidan tashqari moliyaviy sabablarga ko‘ra; huquqiy sabablarga ko‘ra (faoliyat yuritish chog‘ida qonun hujjatlarining buzilishi tufayli) yuz beradi.

Korxonaning bankrot bo‘lishi uning to‘lov qobiliyatining yo‘qotilishini, pul oqimlarining nomuvofiqligini anglatadi, bu hozirgi vaqtda nochorlik mezoni hisoblanadi. Bankrotlik korxona hayotiy davrining har qanday bosqichida yuz berishi mumkin.

Iqtisodiy tashkilotga nisbatan huquqiy tartibotning qo‘llanilishi uning barbod bo‘lishiga emas, balki hayotining yangi bosqichi boshlanishiga olib kelishi mumkin. Lekin boshqa bosqichga o‘tish, inqirozga barham berish uchun bosqichlar o‘rtasida muayyan biznesni o‘zgartirish va uni faoliyatning yangi maydoniga ko‘chirish uchun etarli bo‘lgan mablag‘larni to‘plash darkor.

Inqiroz iqtisodiy rivojlanishning zarur bosqichi hisoblanadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, hayotiy davrlar nazariyasiga muvofiq inqirozning paydo bo‘lishi korxona hayotiy davrining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq.

Yuqorida keltirilgan bosqichlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, muayyan korxona hayotiy davrining g‘oyasini barqarorlik bosqichini imkon qadar uzaytirish uchun kompaniyani rivojlantirish strategik rejasigaG‘prognoziga ham, inqirozga qarshi boshqarish strategiyasiga ham asos qilib olish mumkin. Har qanday korxona standart hayotiy davr bo‘yicha rivojlanadi. Biroq, malakali yoki, aksincha, malakasiz boshqarish orqali o‘z korxonasi hayotiy tsiklning u yoxud bu bosqichlarini «cho‘zish» yoki «siqish» mumkin. Vaziyat rivojlanishining bir necha yo‘llari bo‘lishi mumkin.

Birinchi vaziyat korxonaning «kasallana» boshlashi korxonada moliyaviy menejment zaif bo‘lib, inqirozga qarshi boshqarish strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilmagan hollarda yuz beradi. Korxona rahbariyati xavotirli belgilarni anglamay, moliyaviy ahvolni barqarorlashtirish yuzasidan hech qanday choralarni ko‘rmaydi yoki ushbu choralar o‘zini oqlamaydi. Agar baribir inqirozga qarshi choralar ko‘rilmasa yoki ko‘rilgan choralar bankrot yoqasida turgan korxonaning moliyaviy sog‘lomlashuviga olib kelmasa korxona bankrot bo‘ladi va tugatiladi.

Vaziyat rivojlanishining ikkinchi varianti hayotiy davrdagi muayyan nuqtadan o‘tilganidan keyin korxona boshqaruvchisi inqirozning yaqinlashayotganligini sezgan hollarda o‘rin tutadi. U holda korxonani muayyan chora-tadbirlar orqali «davolash» mumkin. Bunda ushbu tadbir qanchalik oldin boshlansa, u shunchalik kam moliya va mehnat sarflari bilan amalga oshiriladi. Korxonaning qoniqarli moliyaviy ahvolini to‘liq tiklash imkoniyatlari qanchalik katta bo‘lsa, korxonaning bankrot bo‘lishi ehtimoli shunchalik kam bo‘ladi.

Uchinchi holat – bu vaziyat rivojlanishining ideal varianti. inqirozning oldini olish ishini korxona rivojlanishga erishgan bosqichidayoq, ya’ni yaqinlashib kelayotgan inqirozning dastlabki xavotirli belgilari paydo bo‘lgunga qadar boshlash zarur. Buning uchun raqobat jihatdan ustunlikning navbatdagi davrini o‘z vaqtida tiklash; inqirozga qarshi boshqarishning asosiy tamoyillariga rioya qilish; inqirozga qarshi strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Mazkur holatda korxona imkon qadar cho‘zilgan barqarorlik bosqichiga ega bo‘ladi.

Korxonani inqirozga qarshi boshqarish strategiyasini (inqirozga qarshi strategiyani) tanlash muammosi bir vaqtning o‘zida nazariy, uslubiy va amaliy muammo hisoblanadi.

Strategiyalarning quyidagi klassik turlari mavjud – marketing, ishlab chiqarish, moliyaviy, investitsiyaviy va kadrlar strategiyasi. Marketing strategiyasi korxonanini boshqarish strategik rejasining barcha boshqa tarkibiy qismlari lokomotivi hisoblanadi. U sotuvlarni saqlab turish va rivojlantirishga, ishlab chiqarishni xaridorlarning talablariga muvofiq takomillashtirishga, yangi bozorlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Umuman olganda korxonani sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilgan beshta marketing strategiyasini ajratish mumkin: korxonani bozorga qaytarish strategiyasi; bozorni rivojlantirish, ya’ni tovarlarni sotish bozorini kengaytirish strategiyasi; tovarlarni ishlab chiqish strategiyasi; diversifikatsiyalash strategiyasi; bozordan ketish strategiyasi – xo‘jalik yurituvchi sub’ekt yoki bo‘linmani tugatish.

Ishlab chiqarish strategiyasining vazifasi inqiroz holatidan chiqish maqsadida mahsulotni sotish hajmining oshishini rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan, ishlab chiqarishning kerakli tashkiliy-texnik darajasi saqlab turilishini ta’minlovchi sharoitlar va vositalarni aniqlashdan iborat. Ishlab chiqarish inqirozga qarshi strategiyalari jumlasiga quyidagilar kiradi: mahsulot sifatini yaxshilash strategiyasi; korxonani tarkibiy qayta qurish strategiyasi; mahsulot nomenklaturasi va assortimentini o‘zgartirish strategiyasi; ishlab chiqarish samaradorligini oshirish strategiyasi.

Kadrlar inqirozga qarshi strategiyasi kadrlar siyosati asosiy tamoyillari va ustuvor yo‘nalishlarining ishlab chiqilishini nazarda tutadi. Uning mohiyatini tashkiliy tuzilma va yo‘nalish bo‘yicha shtatni rejalashtirish, kadrlar harkati axborot bazasini yaratish, mehnat motivatsiyasi, kasbga yo‘naltirish va qayta tayyorlash ochib beradi. Inqirozga qarshi boshqarishning asosida quyidagi kadrlar strategiyasi yotadi: kadrlar salohiyatini kuchaytirish strategiyasi; yangi boshqarish usullarini joriy etish strategiyasi; korxonani boshqarishni qayta tashkil etish strategiyasi.

Moliyaviy strategiyani ishlab chiqish moliyani boshqarishning samarali tizimini tuzishga yo‘naltirilgan. Korxonani isloh qilish mazkur holatda foydani maqbullashtirish, sof aktivlar qiymatini oshirish, kapital tarkibini maqbullashtirish va investitsiyaviy jozibadorlikni shakllantirish kabi muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Ushbu yo‘nalishlarga doir ishlar quyidagi inqirozga qarshi moliyaviy strategiyalarni joriy etish orqali amalga oshiriladi: aktivlarning likvidliligini oshirish strategiyasi; kapital tarkibini maqbullashtirish strategiyasi; xarajatlarni hisobga olish va nazorat qilish tizimini yaxshilash strategiyasi; foydani maqbullashtirish strategiyasi.

Turli inqirozga qarshi strategiyalarning o‘ziga xos xususiyatlarini ajratish uchun sifat jihatdan yangi ahamiyat kasb etishi mumkin bo‘lgan ayrim ko‘rsatkichlarga ega bo‘lish lozim.

Birinchi ko‘rsatkich – inqirozga uchragan korxonani o‘zgartirishning chuqurligi, u, o‘z navbatida, inqirozning chuqurligiga bog‘liq. Eng umumiy ko‘rinishda, inqirozga qarshi boshqarish strategiyasi quyidagi uchta tarkibiy qismning amalga oshirilishini nazarda tutadi:

1. Mavjud aktivlar, passivlar va qo‘llaniladigan amaliyotni ratsionalizatsiya qilish va birlashtirish (tartib o‘rnatish, tejash, ortiqcha aktivlardan xalos bo‘lish, debitorlik qarzlarini undirish va hokazolar yuzasidan qo‘llaniladigan birinchi galdagi chora-tadbirlar). Ushbu tarkibiy qism ba’zan inqirozga uchragan korxonani barqarorlashtirish dasturi deb nomlanadi.

2. Korxonadagi mavjud tuzilmalar G‘ faoliyat G‘ jarayonlar G‘ tizimlar va hokazolarni qayta tashkil etish (tarkibiy o‘zgartirish).

3. Korxonani rivojlantirish, ya’ni yangi maqsadlarni qo‘yish va ularga erishish, yangi yondashuvlar, usullar va faoliyat yo‘nalishlari o‘zlashtirishdagi innovatsion yondashuv.

Ikkinchi ko‘rsatkich – korxona faoliyatining yo‘nalishi. Ushbu ko‘rsatkichni inqirozga qarshi boshqarish butun inqirozga qarshi strategiyaning muvaffaqiyati uchun muhim omil hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, korxona faoliyatining barcha asosiy yo‘nalishlarini yalpi, puxta va tizimli tahlil qilishga asoslanmagan va mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha inqirozga qarshi tadbirlarni o‘zida mujassam etmagan har qanday inqirozga qarshi strategiyani tizimli va qamrab olish ko‘lamlari yoki qamrab olishning to‘liqligi nuqtai nazaridan adekvat strategiya, deb bo‘lmaydi.

Inqirozga qarshi strategiyaning turini aniqlash uchun muhim bo‘lgan navbatdagi ko‘rsatkich – bu inqirozga qarshi boshqarish rejasini amalga oshirish uchun foydalaniladigan tasarrufdagi moliyaviy resurslar. Eng umumiy ko‘rinishda ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha uchta sifat jihatdan farq qiluvchi uchta vaziyatni ajratish mumkin:

Birinchi vaziyat. Yagona tasarrufdagi resurs – bu u bilan mavjud aktivlarni tejash (xodimlarni qisqartirish, nerentabel ishlab chiqarishlarni yopish, ortiqcha moddiy-texnika zaxiralari, asbob-uskunalar, ko‘chmas mulk va hokazolarni sotish) orqali bo‘shatilishi mumkin bo‘lgan resurs.

Ikkinchi vaziyat. Inqirozga qarshi boshqarish jarayonida korxona birinchi resursga qo‘shimcha ravishda qarzlarni qayta tarkiblashdan olingan mablag‘larni ham ishlatishi mumkin, buning uchun kreditorlarning roziligi (kelishuv bitimi) talab etiladi.

Uchinchi vaziyat. Korxona inqirozga qarshi boshqarish uchun yuqoridagi ikkita resursga qo‘shimcha ravishda yangi kreditlar yoki investitsiyalar ko‘rinishida «yangi pullarni» qo‘lga kiritishi mumkin.

Barcha mazkur uchta vaziyat inqirozga qarshi boshqarishni amalga oshirish uchun mutlaqo turlicha sharoitlarni yaratadi. Tasarrufdagi moliyaviy resurslar ko‘rsatkichi bo‘yicha inqirozga qarshi strategiyaning turini ajratish mumkin. Inqirozga qarshi strategiyaning turi quyidagi axborotlar asosida aniqlanishi mumkin:

inqirozga qarshi boshqarishning asosiy tarkibiy qismini (ratsionalizatsiya qilish, qayta tashkil etish, rivojlantirishni) aniqlab beruvchi korxonadagi inqiroz holatining chuqurligi to‘g‘risida;

korxona faoliyatining inqirozning asosiy manbai bo‘lib xizmat qilgan, uni o‘zgartirish inqirozga qarshi boshqarishning muvaffaqiyati uchun muhim rol o‘ynaydigan yo‘nalishini aniqlab beruvchi korxonadagi inqiroz holatining sabablari to‘g‘risida;

korxona tasarrufida hozirgi vaqtda mavjud bo‘lgan resurslar to‘g‘risida. Bu – nomoliyaviy resurslar: brend, obro‘, etkazib beruvchilar tizimi, sotish tizimi, xodimlarning imkoniyatlari, asbob-uskunalar va boshqa ishlab chiqarish omillari (kapitaldan tashqari);

tartib o‘rnatish va aktivlarni ratsionalizatsiya qilish natijasida bo‘shatilishi mumkin bo‘lgan moliyaviy resurslar to‘g‘risida;

korxonaning kreditorlik qarzlarini qayta tarkiblash (kelishuv bitimi) imkoniyati va ko‘lamlari to‘g‘risida;

kreditorlik qarzlarini qayta tarkiblash orqali ta’minlanadigan moliyaviy resurslar to‘g‘risida;

inqirozga qarshi boshqarishga yangi kreditlar, investitsiyalar ko‘rinishida «yangi pullarni» jalb qilish imkoniyati to‘g‘risida.

Barcha ushbu axborotlar inqirozga qarshi boshqarish bo‘yicha mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan korxonaning holatini tashxis qilish hamda kreditorlar, mulkdorlar, potentsial investorlar va boshqa manfaatdor shaxslar bilan olib borilgan muzokaralar natijasida paydo bo‘ladi.

Mazkur axborotlarni tahlil qilish asosida o‘zgartirilgan korxonaning yangi missiyasi va yangi maqsadlari belgilanadi. Quyidagi savollarga javoblar topish zarur: o‘zgartirilgan korxonaning maqsadli yo‘nalishi qanaqa bo‘lishi, u qanaqa mahsulot ishlab chiqarishi, ushbu mahsulotni qaysi bozorlarda sotishi kerak. Yangi missiya va maqsadlar – bu korxona inqirozga qarshi boshqarish natijasida qanaqa bo‘lishi mumkinligi haqidagi shunchaki istak va orzu emas. Bu – inqirozga qarshi boshqarishning muddatlar bo‘yicha yakuniy va jalb etiladigan resurslar bo‘yicha cheklangan strategik rejasini amalga oshirish natijasida korxonaning yakuniy holati haqidagi real tasavvur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Камбаров Ж. Х. и др. Инқирозга қарши инновацион механизмни такомиллаштириш //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2016. – №. 4. – С. 8-15.

2. Юлдашева Н. А. Инқирозга қарши бошқарувда давлат томонидан тартибга солишнинг асосий йўналишлари //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2020. – №. 2 (134). – С. 170-177.

3. Абдувохидов А., Маткулиева С., Тошбоев Б. Импорт ўрнини босувчи лойиҳаларнинг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2023. – Т. 24. – №. 1. – С. 12-22.

BUGUNGI KUNDA BUXGALTERIYA KASBIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARINING IQTISODIY TARAQQIYOTI.

Chorshanbayev Umurzoq
Guliston davlat universiteti “Buxgalteriya hisobi va moliya” kafedrasi o‘qituvchisi
umurzokchorshanbayev@gmail.com

Musobekova Sevara
Guliston davlat universiteti " Rakamli iqtisodiyot va innovasiyalar”fakulteti talabasi
musobekovasevara14@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola bugungi kunda buxgalteriya kasbiga qo‘yiladigan talablar va ularni takomillashtirish masalalarini iqtisodiy taraqqiyot nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Buxgalteriya faoliyati jamiyatning barcha sohalarida zarur bo‘lib, uning ahamiyati iqtisodiyotning rivojlanishi va tashkilotlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Shuningdek, maqolada buxgalteriya kasbining talab va takomillashtirish aspektlari, zamonaviy texnologiyalar va xalqaro standartlarning qo‘llanilishi masalalari ko‘rib chiqiladi. Yangi iqtisodiy sharoitda buxgalterlar uchun zaruriy kompetensiyalar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida fikrlar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Buxgalteriya, iqtisodiy taraqqiyot, kasbiy talablar, kompetensiya, takomillashtirish, xalqaro standartlar, zamonaviy texnologiyalar, iqtisodiy samaradorlik, moliya hisobi, axborot tizimlari

Kirish: Buxgalteriya kasbi — iqtisodiy va moliyaviy faoliyatni boshqarishning asosiy elementlaridan biridir. Zamonaviy davrda buxgalterlarga qo‘yiladigan talablar doimiy ravishda o‘zgarib, global iqtisodiy integratsiya va yangi texnologiyalar ta'sirida takomillashib bormoqda. Bugungi kunda buxgalterlar nafaqat an'anaviy moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish, balki strategik qarorlar qabul qilishda ham muhim rol o‘ynaydi. Maqolada buxgalteriya kasbiga qo‘yiladigan yangi talablar va uni takomillashtirish yo‘llari iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida tahlil qilinadi.

Bugungi kunda buxgalteriya kasbining dolzarbligi bir necha omillarga asoslanadi, chunki zamonaviy iqtisodiyot sharoitida bu soha iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro savdo, investitsiyalar va transmilliy korporatsiyalar faoliyatining kengayishi buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarga moslashishini talab qilmoqda. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (IFRS) joriy etish global iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda dolzarb masalalardan biridir. Zamonaviy iqtisodiy tizimda texnologik yangiliklar faoliyatning barcha sohalariga, jumladan buxgalteriyaga ham katta ta'sir ko‘rsatmoqda:raqamli texnologiyalardan foydalanish (sun’iy intellekt, bulutli hisoblash, big data) buxgalteriya jarayonlarini avtomatlashtiradi va aniq qiladi. Elektron tijoratning rivojlanishi buxgalteriya va soliq hisobotlarida yangi yondashuvlarni talab qiladi. Buxgalterlarning dolzarbligi soliq tizimidagi doimiy islohotlar bilan ham bog‘liq. Davlat daromadlarini oshirish va soliq qochqinliklariga qarshi kurashishda buxgalterlarning professional